

FRANSUZ TILIDA ARTIKLNING MA'NO AJRATISH IMKONIYATLARI

*Xamraqulova Farida Mamasoliyevna,
Andijon davlat chet tillari instituti,
fransuz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasи
o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada so‘z fransuz tilidagi artikllarning ma’no ajratish imkoniyatlari hususida boradi.

Kalit so‘zlar: ma’no, artikl, ot, son, grammatick, leksik, aniq va noaniq.

Аннотация: В данной статье рассматриваются возможности смыслового разделения artikelей во французском языке.

Ключевые слова: значение, artikel, существительное, число, грамматическое, лексическое, определенное и неопределенное.

Abstract: This article examines the possibilities of semantic division of articles in the French language

Key words: meaning, article, noun, number, grammatical, lexical, definite and indefinite

Fransuz tilida nafaqt ma’no ifodalashda, balki ma’no ajratishda va ma’no chegarasini aniqlashda xam katta rol o‘ynaydi. Bu tilda *artikel* yordamchi so‘z bo‘lib, otni aniqlab keladi. Artikel otni sonini (*birlik-singulier*, ko‘plik-pluriel), jinsini (*feminin*-ayol jinsiga mansub, *masculin*-erkak jinsiga mansub) bildiradi.

Artikel grammatick jixatdan ma’noga ega bo‘lsa xam, mustaqil leksik ma’no anglatmaydi, so‘z urg‘usini olmaydi, ammo determinativlar bilan birga qo‘llanilishi mumkin. Masalan: *Une belle fille-une de belles filles*.

Fransuz tilida artikelning ikki: aniq va noaniq turi mavjud. Aniq artikel yordamida aniqlik, noaniq artikel yordamida noaniqlik ifodalanadi.

Fransuz tilidagi artikellar ikki xususiyatga ega:

1) artikelarni o‘ziga xos shakli mavjud. Masalan, qism bildiruchi (*du*) va uning bevosita ko‘plik shakli (*des*); 2) artikellar turli otlar bilan keng qo‘llanadi. Masalan, atoqli (La France) va mavxum ot (La jeunesse, L’amitie).

Shu bilan birga, artikelning morfologik statusi, uning til va nutq dixatomiyasidagi vazifasi, aniqlik va noaniqlik ma’nosining uslubiy muammolar mavjud. Shuningdek, bu umumiyl muammolar bilan birga yana partitiv (qism bildiruvchi) deb ataluvchi *du* va *des* o‘rnida qo‘llanilishi hamda *de* predlogidan so‘ng artikelning qo‘llanmasligi holatlari kabi bir qancha muammolar ham mavjud. Bu muammolarni yechish tilshunoslar oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

M.Greviss artiklning stilistik o‘rni va vazifasi haqida:”Artikl xuddi yordamchi so‘zdek otsiz yoki kontekstsiz mustaqil ma’noga ega emas”, - degan.

Substitutsiya, transformatsiya, sintaktik konstruksiya, fransuz va rus tillarining morfologik qurilishini taqqoslashdagi tahlil shuni ko‘rsatadiki, artiklning hamma turi va birinchi navbatda va (aniq va noaniq) nomini olgan artikllar uslubiy planda quydagi vazifalarni bajaradi.

Birinchidan, barcha determinativ kabi, artikl uni matnga olib kirgan mustaqil so‘z (ot)ga tobe bo‘ladi, lekin otning semantik, uslubiy roli determinativning shakliga qarab o‘zgartiradi.

Ikkinchidan, artikl olib kirgan ot xohlangan aniq va mavhum tushunchani bildirishi, predmet, voqeа va hodisalarни ko‘rsatishi mumkin.

Uchinchidan, artikl otga qo‘srimcha ma’no berib, uni umumlashtirishi, konkretlashtirishi yoki unga aniqlik kiritishi mumkin.

To‘rtinchidan, artikl fikrga uslubiy tus beradi.

Beshinchidan, aniq, noaniq, partitiv artikllarning uslubiy-semantik vazifasi ularning barcha shakli uchraydigan matnda aniq va yaqqol namoyon bo‘ladi.

Quyida artikllarning boshqa so‘zlar bilan o‘zaro munosabatini qiyoslaymiz:

1. *Le lundi il va voir ses parents.-Dushanba kunlari u ota-onasini ko‘rishga boradi.*
2. *Chaque lundi il a voir ses parents.-Xar dushanba u ota-onasini ko‘rishga boradi.*
3. *Ce lundi il va voir ses parents.-Bu dushanba u ota-onasini ko‘rishga boradi.*
4. *Un Lundi il est alle voir ses parents.-Dushanbada u ota-onasini ko‘rishga boradi.*

Dushanba kunlari u ota-onasini ko‘rishga boradi va *xar dushanba u ota-onasini ko‘rishga boradi* degan ko‘rinishlardagi gaplarda *le* bilan *chaque* so‘zi teng ma’noli. Bundan kelib chiqadiki, *le* va *chaque* konstruksiyali gaplar ham o‘zaro sinonim tarzda qo‘llanilishi mumkin.

Un noaniq artikl ham ma’lum ma’noda *le* aniq artikli bilan vazifadosh va ayrim jihatdan sinonim hamdir. Masalan: *Un lundi il est alle chez ses parents.- Bir dushanba u ota-onasini ko‘rishga bordi.*

Harakat bo‘lib o‘tgan., bajarilgan, aniq. Bu o‘rinda *un* o‘zi noaniq artikl bo‘lsa ham, o‘zi bilan yondosh kelgan so‘zni mavxum tushunchadan aniq xolatga olib chiqayapti. Lekin, *future simple* - kelasi zamonda:

Un lundi il ira voir chez ses parents. – Bu dushanba u ota-onasini ko‘rishga bormoqchi. Gapida ish-xarakat tugallanmagan, voqelikka munosabat noaniq. Bu gapda noaniq atikl noaniqlik ma’nosida ifodalangan. Bundan kelib chiqadiki, agar ish-xarakat tugallangan bo‘lsa, noaniq artikl ifodalansa ham, aniq ma’no beradi. Agar

tugallanmagan bo‘lsa, u mavxum, noaniq ma’noda keladi. Demak, artiklning ma’no ajratish imkoniyatiga zamon ham ta’sir qiladi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash joizki, ko‘rganimizdek, hozirgi kunda artiklnig ma’no ajratish imkoniyatlari va chegarasi haqida tilshunoslar o‘rtasida ilmiy bahs mavjud va bu mavzu fan oldidagi aniqlanishi talab etiladigan masalalardan biri xisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Mamasoliyevna, X. F. (2024). Étude De La Typologie Linguistique A Travers Les Differents Systemes Des Langues. International Journal Of Education, Social Science & Humanities, 12(4), 698-702.
2. Mamasolieyevna, X. F. (2024). YUMORNING PEDAGOGIK MAHORATNI OSHIRISHDA VA SHAXSLARNI IJODKORLIKKA YO ‘NALTIRISHDA DOMINANT VAZIFALARI. IQRO INDEXING, 9(2), 321-325.
3. Анарбоева, И.О. (2024). ФРАНЦУЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА КОРРЕФЕРЕНТ ГАПЛАРНИНГ СТРУКТУРАЛ-СЕМАНТИК ВА ФУНКЦИОНАЛ ЖИХАТЛАРИ. International Journal of Education, Social Science & Humanities, 12(4), 692-697.
4. Oripovna, A.I. (2024). THE PROCESS OF METAPHORIZATION IN DIFFERENT SYSTEMIC LANGUAGES. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 11(09), 39-40.
5. АНОРБОЕВА, И. ТАҚРОРИЙ НОМИНАЦИЯ-НУТҚ ИЗЧИЛЛИГИ ИФОДА ВОСИТАСИ СИФАТИДА. ILMUY XABARNOMA. НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК Учредители: Андижанский государственный университет им. ЗМ Бабура, (3), 84-87.
6. Ориповна, АИ, Аширбековна, РГ, Абдурауповна, КС, Дехконовна, ТМ, и Нусратуллаевна, АН (2024). Лингвистические основы семантической аналогии во французском и узбекском языках. Library Progress International , 44 (3), 3543-3572.
7. Мамадалиев, А. (2023). ПЕРСОНИФИКАЦИЯ И АНИМАЛИЗАЦИЯ. IMRAS, 6(7), 87-90.
8. Мамадалиев, А. (2023, October). АНИМИЗМ И ПРЕДМЕТНЫЕ ПРЕДЛОЖЕНИЯ.In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS (Vol. 1, No. 05.10, pp. 398-401).